XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 20-may VII-10-54-4-67-K/25 Shahrisabz tumani

“Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan Shahrisabz tumanidagi qabristonlar nomlarini qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 14-apreldagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 03/08-3819-sonli xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-,24-moddalariga asosan xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahrisabz tuman hokimligi “Geografik obyektlarni nomlash qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi”ning taklifi hamda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2024-yil 14-apreldagi 03/08-3819-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasi bilan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan tumandagi 12 ta qabriston nomlari ro‘yxati 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman qurilish va uy joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (F.Murodov), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i (S.Qiyomov), tuman soliq inspektsiyasi boshlig‘i (A.Yuldashev), tuman statistika bo‘limi boshlig‘i (O.Abdullayev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari (A.Bozorov), tuman davlat xizmatlari markazi rahbari (A.Qahhorov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda Qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan ziyoratgoh, qabriston va

istirohat bog‘lari nomlari bo‘yicha ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahrisabz tuman hokimining o‘rinbosari (X.Turayev), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (J.Turdiyev), tuman bosh imom xatibi (A.Jumayev), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (S.Raxmanov) larga:

- qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan qabriston nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishdagi O‘zDST texnik shartlariga javob beradigan peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etsinlar.

5. Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

6. Shahrisabz tuman Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi 10 kun muddatda:

- ushbu qaror nusxasini geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga yuborish;

- O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga geografik obyektlar ziyoratgoh, qabriston va istirohat bog‘lariga tavsiya etilgan nomlarni davlat reyestriga kiritish uchun tegishli hujjatlar taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi matbuot xizmatiga mazkur qarorni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

8. Ushbu qarorning ijro etilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Baratov), ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yusupov) hamda tuman hokimi o‘rinbosari (X.Turayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  XASANOV SAMAD AXATILLAYEVICH

Xalq deputatlari Shahrisabz tumani
Kengashining
2025-yil 20-maydagi
VII-10-54-4-67-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Shahrisabz tumani “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari boʻyicha” komissiyasining davlat ekspertizasidan oʻtkazilgan obyekt nomlari toʻgʻrisida

MA’LUMOT

T/r	Geografik obyekt ning turi	Joylashgan oʻrni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1	2	3	4	5	6
1	Qabriston	“Qutchi” MFY	nomsiz	**Eski Gʻoyib ota** Qutchi mahalla fuqarolar yigʻini Eski chorshanbe qishlogida joylashgan Gʻoyib ota "Eski Gʻoyib ota” qabristoni" deb nomlash uchun taklif kiritildi	**Eski Gʻoyibota** – “Oʻzbek tilining imlo qoidalari” asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	Qabriston	“Chuqun” MFY	nomsiz	**Chuqun** “Chuqun” qishlogʻida joylashganligi uchun	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	Qabriston	“Oq oltin” MFY	nomsiz	**Qoratut** Qabristonga kirishga katta qoratut bor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	Qabriston	“Oqoltin” MFY	nomsiz	**Bobopir** “Bobopir” degan odam oʻtgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5	Qabriston	“Chorbogʻ” MFY	nomsiz	**Eski Chorbogʻ** Chorbogʻ MFY borligi uchun Chorbogʻ qoʻyishdan maqsad, toʻrtta tomoni bogʻ bolganligi uchun shu nomni	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

				taklif qilindi	
6	Qabriston	“Oqoltin” MFY	**Yassitepa**	**Do‘stbobo** Do‘stbobo degan inson shu qabristonni tashkil qilib, obod qilgan shu qabristonni.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7	Qabriston	“Saroy” MFY	nomsiz	**Ko‘ktoshota** “Saroy” mahalla fuqarolar yig‘ini Ko‘ktosh ota qabristoni yangi “ Ko‘ktosh ota ” juda qadimiy chillalik chaqaloqlar, chala tug‘ilgan chaqaloqlar qabrga qo‘yilgan Hisor mahallasiga bitta chilla qabristoni bo‘lganligi sababli “Ko‘ktosh ota” deb nomlangan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8	Qabriston	“Uloch” MFY	nomsiz	**“Muruvvat uyi” qabristoni”**	**“Muruvvat”** Geografik obyektlar nomlarining yozilishi qoidalar asosida normallashtirildi. Qonun talablariga muvofiq.
9	Qabriston	“Big‘mi” MFY	**Big‘mi-1**	**Big‘mi** “Big‘mi” mahalla fuqarolar yig‘ini Big‘mi qishlog‘ida joylashganligi sababli taklif kiritildi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10	Qabriston	“Big‘mi” MFY	**Big‘mi-2**	**Yuqori Big‘mi** Bu qabriston Big‘mi qishlog‘idan yuqorida joylashganligi va hozirda to‘lganligi sababli taklif berildi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

11	Qabriston	“Xitoy” MFY	**Ammog‘on-1**	**Katta Ammog‘on** qabristoni maydoni jixatidan 4 gektarga yaqin bo‘lganligi sababli Katta Ammog‘on qabristoni taklif etildi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12	Qabriston	“Xitoy” MFY	**Ammog‘on-2**	**Kichik Ammog‘on** Qabriston kichikroq maydonga ega bo‘lib qishloq markazida joylashganligi sababli, Kichik Ammog‘on qabristoni taklif etildi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.